2024-yilda mineral o‘g‘itlar respublikaning 124 ta tumanida jami 275 ta vakolatli omborlar orqali yetkazib berildi

// 13.01.2025
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/2024-yilda-mineral-o-g-itlar-respublikaning-124-ta-tumanida-

Qishloq xo‘jaligida hosildorlikni ortishi mineral o‘g‘itlar bilan ta’minlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi. “O‘zkimyosanoat” AJ 2024-yilda mazkur masalaga jiddiy e’tibor qaratdi. Tahlillarni aniq raqamlar misolida davom ettiramiz. O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha respublika iste’molchilariga birja savdolari orqali **fizik holda** jami **792,43 ming tonna** mineral o‘g‘itlar sotilgan bo‘lib, shundan azotli – **649,18 ming tonna**, fosforli – **79,37 ming tonna** va kaliyli – 63,88 **ming tonnani tashkil etdi.**

Jumladan, **2024-yil g‘alla va paxta hosili** uchun qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan jami **4,2 trln so‘mlik**, **sof holda 415,4 ming tonna** azotli, **36,4 ming tonna** fosforli va **18,5 ming tonna** kaliyli o‘g‘itlar hamda **2025-yil kuzgi boshoqli don ekish bilan birga 39,0 ming tonna** fosforli va **10,2 ming tonna** kaliyli o‘g‘itlar xarid qilindi.

Davlatimiz rahbarining topshirig‘iga muvofiq fermer xo‘jaliklariga qulayliklar yaratish, mineral o‘g‘itlarning sotilishini jadallashtirish maqsadida kimyo korxonalari tomonidan mamlakatimizning **124 ta** tumanida jami **275 ta** vakolatli omborlar tashkil qilindi. Mineral o‘g‘itlar 1,7 mln tonna sig‘imga ega ushbu omborlardan birja savdolariga qo‘yib borildi.

Shu bilan birga 2024-yildan boshlab joylardagi omborlardan klaster va fermerlarga mineral o‘g‘itni tashishda transportni logistika portalida majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi bekor qilindi.

Yana bir muhim jihat - 2024-yil 27-fevraldan boshlab, mineral o‘g‘itlarni birja savdolariga boshlang‘ich narxlaridan o‘rtacha **10%** gacha pasaytirib xarid qilish auksion tartibida savdoga qo‘yish mexanizmi joriy etildi.

Masalan, “Maxam-Chirchiq” AJning ammiakli selitra mineral o‘g‘itini **10 foiz**ga, karbamid narxini **3 foiz**gacha, ammoniy sulfat o‘g‘itini **4 foiz**ga **2120 ming so‘m**dan **2035** ming so‘mgacha, “Navoiyazot” AJning ammiakli selitrasini **10 foiz**gacha, Ammofos-Maxam” AJning ammofos o‘g‘itini **10 foiz**gacha pasaytirilgan narxlarda xarid qilishning imkoniyati yaratildi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, 2025-yil 1-yanvar holatiga kimyo korxonalarining texnologik hamda yurtimiz tumanlarida tashkil qilingan omborlarida jami sof holda **392,8 ming tonna** azotli, **34,3 ming tonna** fosforli va **76,2 ming tonna** kaliyli o‘g‘itlar zahirasi yaratib qo‘yildi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati